

---

**INGLIZ TILIDAGI BAXTLILIK VA BAXTSIZLIK KONSEPTUAL BINAR  
OPPOZITSIYASINING LISONIY TAHLILLAR ASOSIDA O'RGANILISHI**

*Xoshimova Dildora Madaminovna*

*Filologiya fanlari doktori, chet tillar kafedrası mudiri, NamTI*

*Raxmonova Zebunisso Anvarjon Qizi*

*Tayanch doktorant, Namangan Davlat Universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari bo'lmish kognitiv tilshunoslik, linguomadaniyatshunoslik va linguopragmatika fanlarining asosiy tadqiqot materiali bo'lgan konsept va konseptual binar oppozitsiyalarning, baxtlilik va baxtsizlik semantik maydoni orqali lisonda ifodalanish masalalari, hozirgi zamon tilshunoslari va tadqiqotchilari tomonidan ushbu mavzu obyektiga qaratilgan ilmish ishlar, olib borilgan tadqiqotlar hamda chiqarilgan xulosalar tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** konsept, tushuncha, binar oppozitsiya, qarama-qarshilik, baxtlilik va baxtsizlik, semantik maydon.

**Annotation.** This article focuses on the issues of linguistic expressions of a concept as the most contested area of cognitive linguistics, linguo-pragmatics and linguo-culturology, and conceptual binary oppositions through the semantic field of happiness and unhappiness, and also analyzes the data revealed by recently conducted researches on this field.

**Keywords:** concept, notion, binary opposition, contradiction, happiness and unhappiness, semantic field.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы языкового выражения концепта как наиболее спорной области когнитивной лингвистики, лингвопрагматики и лингвокультурологии, а также концептуальных бинарных оппозиций через семантическое поле счастья и несчастья, а также анализируются данные, выявленные недавно проведенными исследованиями на этом поле.

**Ключевые слова:** концепт, понятие, бинарная оппозиция, противоречие, счастья и несчастья, семантическое поле.

Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy ongni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi [1]. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda konseptning va uning leksik qatlamini har tamonlama o'rganib, uning leksik va semantik tahlilini o'tkazish bugungi kunda keng qamrovda tadqiqotchilar diqqat e'tiborini tortmoqda. Konsept va uning varballashuvi masalalari hamda uni ifodalovchi lisoniy birliklar tahlili doirasida *Baxt* va *Baxtsizlik* konseptlari tadqiqotlarda qariyb peshqadamlikni egallab kelmoqda. Bugungi kunga qadar bir qator dunyo tilshunoslari hamda mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan ushbu dual konsept turli tilshunoslik metodlar asosida o'rganildi va xulosalar chiqarildi.

Hususan, S.T Vorkachevning "Baxt lingvomadaniy konsept sifatida", B.B.Kolesovning "Inson mentalitetida baxt va taqdir konseptlari", D.Shmelevning "Baxt va muhabbat", A.A.Smirnovning "Karamzin publistikasida baxt konsepti" nomli ilmiy tadqiqotlarida kuzatishimiz mumkin. [4] Quyidagi paragraflarda esa baxt va baxtsizlik konsepti ustida so'ngi yillarda, aniqrog'i ikkimingingchi yillikda olib borilgan tadqiqot ishlari haqida qisqacha to'xtalib o'tiladi.

Nguyen Ti Van Lam, Vetnamlik ingliz tili o'qituvchisi, o'zining "*Baxtlilikni ifodalovchi so'zlarning grammatik va semantik hususiyatlari*"[2] nomli maqolasida baxtlilik ingliz tilida quyidagi lisoniy birliklar bilan ifodalanishini ko'rsatib beradi: 'happy', 'cheerful', 'gay', 'glad', 'merry', 'pleased', 'delighted', 'elated', va 'jubilant' (*sifat so'z turkumi*); 'bliss', 'ecstasy', 'euphoria', 'glee', 'joy' va 'rapture' (*ot so'z turkumi*); 'exult' and 'rejoice' (*fe'l so'z turkumi*); va 'walk on air', 'in seventh heaven', 'on cloud nine', 'on top of the world', 'over the moon' va 'thrilled to bits' (*idiomalar*). Shuningdek baxtlilikni ifodalovchi birliklar orasida happy so'zi dominant ekanligini ham ta'kidlab o'tadi va grammatik jihatdan

sintaktik va morfologik qurilishini hamda semantik jihatdan ko'p manoli so'z sifatida 6 xil tuyg'uni ifodalishini batafsil yoritib beradi.

Berlin universiteti tadqiqotchisi, Anatol Stefanovich ingliz va nemis tillarida baxtlilik konseptining metaforalarda ifodalanishini analiz qiladi va ingliz va nemis tilida baxtlilikni ifodalovchi *happiness* va *Glück*, shu bilan birga *joy* va *Freude* so'zlaridan ingliz tilidagi *happy* so'zi ko'proq og'zaki va yozma nutqda ishlatilishini, nemis tilida esa aksincha *Freude* so'zi kengroq qo'llanilishini ko'rsatib beradi [3]. Ushbu tadqiqot orqali esa baxtlilikni ifodalovchi so'zlar tarjimada aynan o'z ekvivalentini boshqa tilda topgani bilan, bu ushbu so'zlar til egalari tomonidan nutqda birday qo'llanilmasligini va pragmatik va lingvomadaniy munosabatlari bir xil emasligini anglashimiz mumkin. Shu sababdan ham so'ngi yillarda tilshunoslikda baxtlilik va baxtsizlik konseptining ikki xil til doirasida qiyosiy taqqoslab o'rganish masalasi ham tobora kengayib bormoqda.

Mamlakatimizda baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasining ingliz va o'zbek tillarida qiyoslab o'rgangan tadqiqotchilarimizdan M.Qosimova hamda S.Karimovalarning ilmiy ishlarini aytib o'tish o'rinlidir. Qosimova o'zining "O'zbek va ingliz tillarida baxtlilik va baxtsizlik konseptual binar oppozitsiyasi" [5] PhD dissertatsiyasida ushbu binar konseptning ikki tilda ifodalanishdagi o'xshashlik va farqli jihatlari, uning nutqda verballashuvi hamda baxtlilik va baxtsizlik konseptual maydonining badiiy-obrazli ifoda vositalarining tahlilini amalga oshirib asosli natijalar keltirib o'tgan. S.Karimova esa Baxt konsepti yadro leksemasi sinonimlarning qiyosiy xarakteristikasini quyidagi so'zlar qatori bilan ko'rsatib berish mumkinligini ta'kidlaydi [4]: *bliss, blissfulness, content, contentedness, contentment, delectation, gratification, relish, delight, enjoyment, satisfaction, felicity, joy, joyousness, joyfulness, jubilation, cheerfulness, cheeriness, cheer, blithesomeness, -gladness, lightheartedness, exhilaration, elation, exuberance, high spirits, glee, ecstasy.*

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga qarab aytish mumkinki, baxtlilik va baxtsizlik konseptual maydoni qiyosiy va chog'ishtirma usullar orqali hamda tarjimashunoslik nuqtai nazaridan atroflicha o'rganilgan bo'lishiga qaramay ushbu konseptning noverbal vositalar orqali ifodalanishi, binar oppozitsiya holatida birgalikda stilistik munosabatlarga kirishishi, tayyor nutq birliklarida va badiiy adabiy diskurslarda ifodalanishi masalalari hamon ochiq qolmoqda.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar:**

- 1.A. Primov, X. Qodirova Tilshunoslikning Dolzarb Muammolari O'Quv-Uslubiy Qo'LLanma *Urganch – 2019 99pp, 13-Bet*
2. Grammatical And Semantic Features Of The Word Denoting Happiness 'Happy' By [Nguyen Thi Van Lam](#), *TIL* (Tun Institute Of Learning, Yangon, Myanmar), May 2004 [Grammatical And Semantic Features Of The Word Denoting Happiness \(Tuninst.Net\)](#)
3. Happinessin English And German: A Metaphorical-Pattern Analysis ANATOL STEFANOWITSCH Language, Culture, And Mind. Michel Achard And Suzanne Kemmer (Eds.). Copyright © 2004, CSLI Publications
4. Karimova S. Samdcht Doctoral Student, Lexical And Semantic Features Of The Concept "Happiness" In Uzbek And English Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (Giirj) Issn (E): 2347-6915 Vol. 9, Issue 7, July (2021) 4pp, 35-Bet
5. М.З.Қосимова. Ўзбек Ва Инглиз Тилларида Бахтлилик Ва Бахтсизлик Концептуал Бинар Оппозицияси. Филология Фанлари Бўйича Фалсафа Доктори (Phd) Диссертацияси Автореферати. Андижон – 2021